



XALQ DOSTONLARI TILIDAGI NUTQNING NORASMIY UNSURLARI

Dilmurod Ashurov

Ilmiy rahbar PhD

Lingvistika (O'zbek tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Tursunaliyeva Shahzoda Muxsinali qizi

e-mail: tursunaliyevashahzoda683@gmail.com

tel: +998990207157 Namangan davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017168>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

KEY WORDS

nutqning norasmiy unsurlari, qarg'ish, qasam, so'kish, tashqi qasam, ichki qasam.

ABSTRACT

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Har bir kishining nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va, asosiysi, til unsurlaridan tashkil topadi. Ushbu maqolada "Kuntug'mish", "Ravshan" va "Go'ro'g'lining tug'ilishi" kabi xalq dostonlari tilida qo'llangan nutqning norasmiy unsurlari: qarg'ish, so'kish, qasamlar haqida so'z yuritilgan. Nutqning norasmiy unsurlari misollar vositasida tahlil qilingan.

Ijodkor xalqning jonli tilida ham, badihago'y baxshi-shoirlarning repertuarida ham ko'plab uchraydigan urf-odatlar, qadriyatlar, irim-sirimlar, diniy va mifologik tushunchalar, xilma-xil ruhiy vaziyat-hoatlarni o'zida ifodalovchi nutqning norasmiy unsurlari xalq dostonlari mazmuniga shu qadar singib ketganki, ularsiz epik qahramonlar kayfiyati va ruhiyatini, xatti-harakatlarini, eng muhimi, dostonlarning tili va badiiyligining mukammal bo'lishini tasavvur etish qiyin. Bunga asosiy sabab bitta: har ikkala hodisa, ya'ni doston ham, nutqning norasmiy unsurlari ham xalqning ko'p yillik ijodiy tafakkurining mahsuli va ularning sintezi ekanligi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Epik tasvir bayonida tug'ilib kelayotgan yangi mazmuni baxshiyona ifodalay olish yoki muayyan qolipga tushmagan so'zni, olaylik, nutqning norasmiy unsurlarini mahorat bilan bayonga kirita olish imkoniyati faqatgina so'z zargari sifatida xalq baxshilariga berilgan. Shu sababli dostonlar tilidagi nutqning norasmiy unsurlarini muayyan darajada tahlil qilish, *birinchidan*, ularning o'ziga xos lingvopoetikasini ochib berishga xizmat qilsa, *ikkinchidan*, baxshining so'z san'atidan samarali foydalanganligini ta'kidlashga, uning badiiy mahorati qay darajada ekanligini baholashga, qolaversa, boshqa baxshi-shoirlar mahorati bilan qiyoslashga katta yordam beradi [1].

Xalq dostonlari tili jahon hamda o'zbek tilshunos va adabiyotshunoslari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Jumladan, o'zbek olimlaridan G.Jumanazarova "Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil)", B.Sarimsoqov "Olqishlar va qarg'ishlar", S.Nurmonova "O'zbek tilidagi qasam nutqiy janrining lingvomadaniy tadqiqi", F.Eshboyeva

“O‘zbek xalq qarg‘ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati” va jahon olimlaridan M.Baxtin izlanishlari va ilmiy asoslangan fikrlari atroflicha o‘rganildi. Ularda keltirilgan fikrlar qiyoslandi.

Bu boradagi kuzatishlarimizni bayon etishdan avval M.M.Baxtinning quyidagi mulohazalarini keltirishni lozim topdik: “... *so‘kish, qarg‘ish, qasam, haqorat singari hodisalar nutqning norasmiy unsurlaridir. Ular nutqiy munosabatlarda mavjud bo‘lgan qoidalarni atayin buzishning shakli sifatida qabul qilib kelingan va shunday qabul etiladi. Ular muomala borasida qoliplardan, mulozamatdan, nazokatdan, izzat-ikrom, e‘zoz, ehtirom, itoatkorlik va boshqalardan qasddan yuz o‘girishdir*”. [2] Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash ham baxshining unikalligini bildiradi, ham kuylanayotgan asarning badiiyligi, obrazlilikini ta‘minlaydi. Qay bir asar bo‘lmasin unda keltirilgan nutqning norasmiy so‘zlari qasamlar, qarg‘ishlar, so‘kishlar o‘sha asarning barcha o‘quvchilar uchun ochiqligini bildiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalq dostonlarining tili o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Baxshilar reprotuaridagi nutqning noadabiy unsurlari: qasamlar, qarg‘ishlar, so‘kishlar ham badiiy asar mazmununi ochib berishdagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr bildirilib, 3 ta xalq dostoni tiliga amaliy yondashilgan. Mavzuga oid nazariy masalarni yoritishda xalq dostonlariga doir fundamental tadqiqotlarga, ulardagi ilmiy-nazariy qarash va usullarga tayanadi. Maqolada xalq dostonlari tilidagi noadabiy unsurlarni tavsiflashda, asosan, chog‘irtirma, lisoniy tavsiflash metodlaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Qadimgi janrlardan biri **qasam janri** nutqiy janrning o‘zgarmas, turg‘un shakli frazeologizmlarga o‘xshaydi. Lekin qasam nutqiy janrga taalluqli bo‘lganligi uchun nutqiy birlikdir, frazeologik birliklar esa til birligiga kiradi. Nutq janrlaridan biri bo‘lgan qasam ham shu tarzda ikkiga bo‘linadi: *ichki qasam, tashqi qasam*.

Ichki qasamning o‘ziga xosligi shundaki, u faqat so‘zlovchining o‘ziga ayon bo‘ladi, ya‘ni o‘ziga-o‘zi qasam ichadi: “*Bizlarga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa, bir-biriga qo‘lqanot bo‘lsin, qiz bo‘lsa do‘st bo‘lsin*” (“Kuntug‘mish” 5-bet) // “*Tegsa ham olaman, tegmasa ham olaman, boshqaning kelganini ko‘raman*” (“Kuntug‘mish” 8-bet).

Tashqi qasam esa faol nutq hisoblanib, inson nutqiy faoliyati bilan bog‘liq, asosan, so‘zlovchining o‘z xatti-harakati, so‘zlariga tinglovchini ishontirish yoki ahd, va‘da qilish jarayonida yuzaga keladi. Demak, tashqi qasam biror voqea, hodisa haqida berilgan axborotning to‘g‘riligiga ishontirish uchun yoki biror topshiriqni, vazifani aniq bajarish yuzasidan aytiladi. Masalan: “*Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklayin so‘yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko‘zini o‘yaman, tepasiga moyni quyaman*” (“Kuntug‘mish” 10-b) // “*Har kim tomga chiqsa, eshikdan qarasa, teshikdan qarasa – boshi o‘limda, moli talovda*” (“Kuntug‘mish” 39-b).

Qasamlar gender belgisiga (jinsiy xoslanishga ko‘ra) quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Betaraf qasamlar. Betaraf qasam turlari har ikki jins turiga xos bo‘ladi. Masalan, “*Xudo haqqi*”, “*Qur‘on ursin*” kabi birliklar betaraf qasam turlarida ishlatiladi, ya‘ni erkaklar nutqida ham, ayollar nutqida ham uchraydi. [3]

2. Erkaklarga xos qasamlar. Erkaklar nutqida ko‘p qo‘llanadigan so‘zlar: – “*Bachchag‘ar, otdan tush endi. Bu kun yot, erta tong otsin, kunduz bo‘lgandan so‘ng borasan,*

shu yoringni ko'rasan, ko'zi tushsa o'lasan" ("Kuntug'mish" 22-bet), *Ko'zidan qonli yoshini oqizaman* ("Kuntug'mish" 41-bet)

3. Ayollarga xos qasamlar. Ayollar nutqida ko'p qo'llanadigan so'zlar: – *Qizlarga tayin qildiki, Shu odam eshikdan kelsa, bittang joy bersang, yo o'rningdan tursang o'ldiraman, – dedi* ("Kuntug'mish" 34-bet), *Shu so'zimdanda qaytsam, yelkamning chuqin ko'rmay o'layin, bosgan izim orqamda qolsin – deb shunday "katta qasamlarni" ichdi* ("Kuntug'mish" 44-bet). *"Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa tegaman, utdirsa so'yaman"* ("Kuntug'mish" 7-bet). Tilshunoslarning e'tirof etishicha, qasam ichish ayollar nuqtida 30 foizni tashkil qilsa, erkaklar nuqtida 70 foiz ekan. Bundan ko'rinadiki, o'z maqsadini aniq bildirish uchun ekraklar nutqida norasmiy unsurlar ko'p o'rinlarda uchraydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqorida keltirilgan misollardan tashqari qasamlar xalq dostonlari tilida ko'p o'rinlarda qo'llanganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Fikrimiz isboti sifatida "Kuntug'mish" xalq dostonidan olingan parchalarni havola etamiz: *"Ayta ko'rma, oti qursin, ko'p yomon, Xon eshitsa, do'stim, tayin, o'ldirar"* (15) // *Jon chiqquncha bu tanamdan qalandar bo'lganim yaxshi* (96) // *Men yig'lasam sen ham yig'la, yangajon, Ilohi, Xolbeka o'lsin, so'rmagin* (104) // *Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdanda, Yangilmadim also aytgan so'zimdanda* ("Kuntug'mish" 157).[4]

Tahlillardan ko'rish mumkinki, inson o'z ichki kechinmalarini salbiy bo'yog'i kuchli so'zlar orqali qo'llasa, uning ta'sir etishi kuchliroq bo'lishiga ishongan. Qilgan ishidan pushaymonlikni kuchli ifodalash uchun ham qasamlardan ko'proq foydalangan.

Xalq dostonlari tilida norasmiy nutq unsurlarini qo'llash tinglovchilarda qahramonlar va doston voqea-hodisaga bo'lgan munosabatni emotsional-eksperessivligini oshishiga va ta'sir doirasini kengayishiga xizmat qiladi. Galdagi norasmiy unsurlardan biri bo'lgan qarg'ish haqida va uni xalq dostonlarida qo'llanish o'rinlari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Qarg'ishlar o'zbek folklorining mustaqil, qadimiy, an'anaviy janri bo'lib, insonga yomonlik, o'lim tilash motivlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. "qarg'ish" atamasi qadimgi turk tilida "qirqar" fe'li o'zagidan yasalgan. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida shu so'z bilan o'zakdosh "qirg'a" iborasining g'azab ma'nosida qo'llanilganiga izoh berilgan. "Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati"da esa "qarg'a" fe'lining "la'natlamoq", "haqoratlamok" ma'nolarida, "qirg'a" fe'lining esa "koyimoq, so'kmoq, urishmoq" ma'nolarida qo'llanilganligi aytilgan. Hozirgi tilimizda "qir" fe'li uchraydi va u "yo'qot", "yo'q qilib yubor" degan ma'nolarni ifoda etadi. Shuningdek, u yana lug'at boyligimizda mavjud "qirg'in" so'zi bilan ham o'zakdosh hisoblanadi. Ma'lumki, "qirg'in" so'zi "urush, yo'q qilib yuborish, boshiga o'lim solish" kabi tushunchalarni ifoda etadi. O'g'uz lahjasida so'zlovchi aholi o'rtasida uchraydigan "Qirg'in tegsin", "Qirg'inini beray" kabi qarg'ishdagi "g'in" so'zi "qarg'ish" so'ziga mohiyatan yaqin bo'lib, yo'q qilish, o'limga mahkum etish tilagini ifoda etadi. Shunisi aniqki, qarg'ishlarning mazmun-mohiyatini, maqsadini insonga o'lim, yomonlik, kulfat, baxtsizlik tilash tashkil etadi. Ayniqsa, qarg'ishlarning kattagina qismi insonga o'lim tilash uchun aytilishi jihatidan ajralib turadi. Qarg'ish barcha xalqlar folklorida mavjud. Shu bois turli xalqlar og'zaki ijodida uchraydigan qarg'ishlar mazmuni, shakli va poetik tabiatiga ko'ra bir-biriga yaqin va hamohangdir. Chunki qarg'ishlarning kelib chiqish asoslari bir ildizga – so'z magiyasi bilan bog'liq tasavvur-tushunchalarga borib taqaladi. Qarg'ishlar hajman qisqa, ixcham, mazmunan lo'nda bo'ladi. Quyida xalq dostonlari qahramonlari tilidan aytilgan qarg'ishlarni tahlil qilib ko'ramiz: *Akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo'lar. Bu bilan borganimdan*

bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimning ma'raka-o'lturishlarida yuzini tuman qilganimdan, – shu yerda g'arib bo'lib o'lganim yaxshi. // Uyiga qaytib keldi, kelib o'ylab aytdi: "Kel-e, bu shaharda musofir bo'lib o'lgandan, o'z jiyanimning qo'lida o'lganim yaxshi" ("Go'ro'g'lining tug'ilishi" 38-bet) Haq kuydirdi mening kulba xonamni, Rayhon arab kuydirgandi tanamni, Sen qanday o'larmonsan, yo'lovchi, Qo'yib yubor, mahkam ushla bolamni! // Iching kuyib o'lg'in arab, Endi qoyil bo'lg'in arab. Yetim toyim yelmadimmi? Seni sarson qilmadimmi? Iching kuyib o'lg'in arab, Endi qoyil bo'lg'in arab" ("Go'ro'g'lining tug'ilishi" 50-bet).[5] Odamlar rasmi do'stlikka muhabbat qo'yib jo'ra bo'ladi. Do'st otini hurmat qilib, bir-biridan qayta olmaydi. Men Kalomullohni ko'kragimga qo'yib, o'ttiz pora Qur'onni o'ttiz marta o'rta olib, sening bilan do'st bo'laman (69) // Qo'ling dard ko'rmagur, jallod, mirg'azab (46) // Kamlikning kamoli bordur, sanamjon, Menmanning zavoli bordur sanamjon (72) // Yorile-e, bachchag'arlar lof debdi (74) // Agar shundan so'yib ketsang, Azbarxon, Tayin bilgin kuyib ketar iymoning (78) // Iloho buzilsin falak gardishi, Falak, sendan shod bo'lmadim bir soat (81) // Ilohi toleying qursin, go'daklar (84) – Podshoh bo'lmay bo'lusiz qolgur (159) // Chiqsin ko'zung, tanimading bolangni ("Kuntug'mish" 160-bet) // Aynoq aytdi: "E, uchchangdan urgur, har kimni ham odam deyaverasanmi!" Xudo urgani yo'q ("Ravshan" dostoni 60-bet).

Yuqorida keltirilgan xalq dostoni qahramonlari tilidan aytilgan qarg'ish so'zlar kontekstda anglatayotgan ma'nosidan kelib chiqib, aynan o'z ma'nosidan uzoqlashishi mumkin. O'zbek tilida "o'ldi" tushunchasining 400 ga yaqin evfemik vositasini aniqlagan A.Omonturdiyev birgina "o'l" ("o'lasan", o'lmoq) tushunchasi bilan bog'liq gaplar qarg'ish (o'lim, yomonlik istash, tilash) vositalari ekanligini ta'kidlab, ayni paytda, ular qanday qilib evfemik vosita bo'la olishini quyidagicha izohlaganida mutlaqo haq edi: 1) evfemik ma'no mezonini belgilashda tabu tushuncha o'rnida qo'llanilayotgan vositalarning nisbatan yumshoqlik darajasi nazarda tutiladi; 2) evfemik qarg'ish vositasi tabu tushuncha (o'l, o'lg'in, o'lsin)ning, ya'ni denotatning bevosita ifodasi emas, balki konnotati, ya'ni ko'chimlashgan, ramziylashgan tasviriy ifodasidir; 3) qolaversa, qarg'ish tushunchasi qanchalik evfemalastirilmasin, uning salbiy, noxush ta'siri xotiradan bartaraf bo'lmaydi; 4) evfemik qarg'ish vositalarining shakllanishida *qon, jon, kafan, taxta, suv, yuvg'ich (g'assol), go'r, tuproq, tobut, xayrot, aza, motam, yetti, qirq, yil* kabi tayanch (realizator) so'zlar qatnashadi, bular ham baribir o'lim tushunchasini eslatib turadi. [6]

Nutqning norasmiy unsurlaridan yana biri so'kishdir. "So'kish" "so'k" o'zagidan olingan bo'lib "yirtish", "chok-chok qilib tashlash" ma'nosini beradi va kishini haqorat qilishni anglatadi". [7] So'kishni ifodalovchi so'zlar muayyan ma'noda "an'anaviyligi, og'zaki tarzda ommaviylashishi, bir necha xil variantlarga egaligi, ijrochisi aniq bo'lsa-da, aslida uning yaratuvchisi xalq ommasi ekanligi, ya'ni an'anaviylik xususiyatiga ega bo'lishi"[8] bilan birgalikda nutqning norasmiy unsurlari sifatida muayyan epik qahramonlar nutqida ham ba'zan uchrab turadi.

Hozirgi vaqtgacha maxsus to'planib, o'rganilmay kelayotgan so'kishlarda asosan aytuvchi (so'zlovchi)ning aytim qaratilgan shaxsga nisbatan yomon niyati ifoda etiladi. Hayotiy qamrovi, qo'llanilishi va vazifadoshligi jihatidan so'kishni ifodalovchi so'zlar qarg'ish so'zlarga anchayin yaqin turadi. Ayni holda, bunday so'zlar xalq dostonlari tilida bir qator o'ziga xos va takrorlanmas lisoniy xususiyatlarga egaligi bilan e'tiborlidir. Ularning ayrimlarini ta'kidlashga urinib ko'ramiz. So'kishlarni boshqa tillarga tarjima qilish juda qiyin; xalq dostonlari tilidagi so'kishning ijro payti va o'rnini oldindan belgilab bo'lmaydi; ijrochilar

tarkibi va egasi – yakka, epik qahramonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi; so'kish ifoda talabiga ko'ra, norasmiy shakldagi o'ta ta'sirchan nutq sanaladi; ifoda shakliga ko'ra, dostonlar tilida asosan sochma tarzda uchraydi; ifoda zamoniga ko'ra, ko'pincha kelasi zamon fe'lida qo'llanadi; adresatiga ko'ra, ikki aspekt: (ifodani yo'llovchi va muayyan ob'ekt)dan iborat. Xalq dostonlari tilidagi so'kish so'zlarida faqat dushman (raqib) shaxsiyatini haqoratlash maqsadi va vazifasi yetakchilik qiladi, faqatgina erkak jinsiga mansub epik qahramonning jahli chiqqanida so'kish ijro etiladi; so'kish namunalari tahqirlovchi hukm ifodasi nihoyatda kuchli; kontaminativ ifodaga ko'ra, so'kishlarda ma'no ko'chimi ba'zi hollardagina uchraydi.

Yana shularni ta'kidlash lozimki, lisoniy ifoda usullaridan parallelizmlar, parodoksallik, antiteza, gradatsiya, metafora, takror, vazndoshlik, ritorik xitob va boshqalar so'kish so'zlarga mutlaqo xos emas. Faqat ayrim hollardagina, dostonlar tilida uchraydigan ritorik so'roqda so'kish xususiyati mavjud bo'lishi, ya'ni, ritorik so'roq tarkibida so'kish namunasi qo'llanilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni yuqorida tahlilga tortilgan "Kuntug'mish", "Ravshan" va "Go'ro'g'lining tug'ilishi" xalq dostonlari epik qurilishi, tinglovchiga yoqimlili, barcha yosh va jins vakillari uchun tushunarligi, tili, uslubi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Ularda qo'llanilgan har bir so'z o'zining emotsional-ekspressiv vazifasini o'z o'rnida bajargan va ularda qo'llangan tilning norasmiy unsurlari qasam, so'kish, qarq'ish so'zlar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2017. – Б. 113.
2. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. - Москва: Художественная литература, 1990.
3. Nurmonova S. O'zbek tilidagi qasam nutqiy janrining lingvomadaniy tadqiqi (PhD). – Andijon, 2022. – B. 63
4. Hodi Zarif Kutug'mish/Ravshan dostonlar. – Toshkent, 2011. – B. 157.
5. Jo'rayev M. Go'ro'g'li doston. – Toshkent, 2017. – B. 50.
6. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2017. – 89-94-бетлар.
7. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари, 2 томлик, 1-том – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 143.
8. Эшбоева Ф.Х. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 197.